O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY-
SIYOSIY FANLAR FAKULTETI

Ro'yxatga olindi: № BD-60310100 2024 yil "10" 03		**"TASDIQLAYMAN"** SamDU rektori: _____ R.I.Xalmuradov 2024 yil "___" _____

Jahon siyosati
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	300 000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta'lim sohasi:	310 000 – Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60310100- Siyosatshunoslik

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi 300 talik ro'yxatga kiruvchi **George Washington University, Washington D.C., 32 (75.8)**ta'lim dasturi asosida tayyorlandi.

https://gspm.gwu.edu/sites/g/files/zaxdzs5061/files/downloads/PMGT%206401.010%20Fundamentals%20of%20Political%20Mgt%20-%20Cornfield.pdf

Samarqand - 2024

Fan/modul kodi JAS 1308	O'quv yili 2025-2026	Semestr 3-4	ECTS – Kreditlar 8
Fan/modul turi Majburiy fan	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4 soat

	Fan nomi	Auditoria mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami:
1.	Jahon siyoasati	102	138	240

II Fanning maqsadi (FM)

2	**Fanning mazmuni** Fanni o'qitishdan asosiy maqsad-talabalarga zamonaviy xalqaro siyosatning nazariy, konseptua! va amaliy masalalari bo'yicha bazaviy bilimlar berishdan iboral. Sliuningdck, bundan keyingi siyosiy fanlarning maxsus kurslari uchun nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Fanning vazifalari: - zamonaviy jahon siyosatiga doir asosiy nazariy konsepsiyalar. fanning metodologik jihatlari va paradigmasi bilan tanishtirish; - xalqaro munosabatlar va jahon siyosati subyektlarining manfaatlari, maqsadlari va olib borayotgan siyosatini aniqlash va kuzatishga o'rgatish; - jahon siyosati jarayonlarini boshqaruvchi qonnniyatlarni ochib berish; - jahon siyosatida xalqaro tashkilotlarning o'rni va rolini ko'rsatib berish; - jahon siyosatining bugungi kun xususiyatlarini jahon tartiboti nazariyasi orqali ko'rsatib berish; -jahon siyosatidagi dolzarb muammolarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllant iradi.

Fan mazmuni
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) **II.IFan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**
3-semistr Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M) (26)

M1	**Davlat boshqaruviasoslarifaniga kirish** **Jahon siyosati fanining nazariy inaabalari va konseptual asoslari** Jahon siyosati va xalqaro munosabatlar tadqiqol obyekti sifatida. "Xalqaro munosabatlar", "xalqaro siyosat" va "jahon siyosati" kategoriyalarining o'zaro bog'liqligi. Xalqaro munosabatlarning fan sifatida shakllanishi. Xalqaro munosabatlarning obyekti va predmeti. Xalqaro munosabatlar tushunchasi va mezonlari. Jâhon siyosati, Ichki va tashqi siyosatning o'zaro bog'liqligi. Jahon siyosati va xalqaro munosabatlarning predmeti.
M2	**Siyosiy ta'limotlar tarixida xalqaro niunosabatlargaqarashlar** Xalqaro siyosiy tadqiqotlar doirasida ilmiy va o'quv fanlarining yuzaga kelishi. Xalqaro munosabatlarning zamonaviy nazariyalari. Mintaqashunoslik ilmiy tadqiqot va o'quv lani sifatida. Qadimgi dunyo siyosiy fikrlaridagi tashqi siyosiy konsepsiyalar. Uyg'onish davri va hozirgi z.amon siyosiy la'limotlarida xalqaro munosabatlarga nisbatan qarashlarning shakllanishi va rivojlanishi.
M3	**Vestfal modeli asosida zamonaviy xalqaro munosabatlar tamoyillarining shakllanishi** Vestfal modeli tamoyillarining shakllanishi. Davlat suvereniteti. Milliy davlatlarning yuzaga kelishi. Davlatlarning tan olinishi, xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash tamoyili, hududiy yaxlitlik. Vestfaliya modeli doirasida xalqaro munosabatlar tizimi faoliyati. "Yevropa konserti" xalqaro munosabatlar tizimi sifatida.
M4	**XX asrning 40—60-yillari siyosiy fanlarda xalqaro munosabatlarni tadqiq etishning nazariy masalalari** Xalqaro munosabatlar nazariyasi va amaliyotida siyosiy idealizm. Amerika Qo'shma Shtatlarida siyosiy realizm. G'arbiy Yevropada siyosiy realizm. Xalqaro munosabatlarning maqsadlari va manfaatlari. Xalqaro munosabatlarda modernistik qarashlar. Bixeyviorizm kategoriyasi. Sivilizatsion yondashuv. Xalqaro munosabatlar ishtirokchilarining uslublari va strategiyalari. Xalqaro aktorlar faoliyatida kuch omili.
M5	**1970 - 1990-yillarda xalqaro munosabatlar nazariyasidagi o'zgarishlar** Xalqaro munosabatlardagi neoliberal konsepsiyalar. Neorealizmning shakllanishi. Xalqaro munosabatlarda postmodernistik va neomarksistik qarashlar. Xalqaro integratsiyaning nazariy masalalari. Xalqaro rejimlar nazariyasining shakllanishi. Qudratli davlatlar bipolyar qarama-qarshiligi davrining nazariy masalalari.
M6	**Xalqaro munosabatlarda metod masalasi** Xalqaro munosabatlarni o'rganishga tizimli yondashuv. Vaziyatni tahlil qilish usullari. Eksplikativ usullar. Bashorat qilish usullari. Qaror qabul qilish jarayonini tahlil qilish. Xalqaro munosabatlar qonuniyatlari mazmuni. Xalqaro munosabatlarning universal nazariyalari.
M7	**Xalqaro munosabatlar tizimi va strukturasi** Xalqaro munosabatlar muhitining xususiyatlari. Xalqaro tizimlarning nazariy modellari. Xalqaro tizimlarning turlari va tuzilmalari. Xalqaro munosabatlarni tahlil qilishda tizimli yondashuvning xususiyatlari va asosiy yo'nalishlari. Xalqaro tizimlarning faoliyati va transformatsiyasi qonuniyatlari.
M8	**Xalqaro munosabatlar tizimining jahon taraqqiyotidagi**

	o'rni "Sovuq urush"dan keyingi davr xalqaro munosabatlar tizimining rivojlanishi. Demokratlashtirish va liberallashtirish - globallashuv masalalari. Suverenitet va xavfsizlik masalalaridagi o'zgarishlar. Avtoritarizm, totalilarizm va demokratiya: iqtisodiy omillar. "Demokratlashtirishning uchinchi to'lqini" konsepsiyasi. Zamonaviy dunyoda demokratlashtirish masalalarining isliqbollari va qarama-qarshiliklar.
M9	**XX asr oxiri -XXI asr boshlarida xalqaro munosabatlar va jahon siyosati masalalari borasidagi nazariy qarashlar** Xalqaro munosabatlar "yangi" nazariyalarining paydo bo'lishi. F.Fukuyamaning "Tarixning intihosi" konsepsiyasi. S.Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" konsepsiyasi. Zb.Bjezinskiyning geosiyosiy nazariyalari. I.Vallerstaynning dunyoning tizimli tahlili konsepsiyasi. Jahon siyosatining yangi aktorlari va yangicha qarashlar.
M10	**Xalqaro mojarolarni tadqiq qilish va bartaraf etishning nazariy masalalari** Xalqaro xavfsizlikni ta'minlashning nazariy asoslari. Xalqaro mojarolaming xususiyati va tipologiyasi. Xalqaro xavfsizlikning harbiy-siyosiy jihatlari. Xalqaro mojarolaming tadriji va dinamikasi. Xalqaro mojarolarni linch yo'l bilan hal etish yo'llari. Xalqaro munosabatlarni huquqiy tartibga solish masalasi. Muzokaralar bosqichlari. Xalqaro mojarolarni hal qilishda uchinchi tomon omili. Xalqaro huquq joriy etilishining tarixiy shakllari va xususiyallari. Xalqaro huquqning asosiy tamoyillari. Zamonaviy dunyoda xalqaro huquq.
M11	**Globallashuv jahon siyosiy jarayoni rivojlanishining asosiy tendensiyasi sifatida** Globallashuv masalalari bo'yicha nazariy munozaralar. Globallashuv sharoitida jahon iqtisodiyoti va jahon siyosati. Xalqaro munosabatlarning nodavlat ishtirokchilari. Xalqaro tartibot tushunchasi. Zamonaviy xalqaro tartibotning xususiyatlari. Sobiq "uchinchi dunyo" mamlakatlari va mintaqalari globallashuv sharoitida. Globallashuv va zamonaviy rivojlanish muammolari. Xalqaro munosabatlardagi integratsiya jarayonlari. Mintaqa, mintaqachilik. mintaqaviylashuv. Mintaqaviy tashkilotlarning institutsionallashuvi.
M12	**Zamonaviy jahon siyosatida etnopolitik omil** Zamonaviy jahon siyosatida millatchilik va ksenofobiya. Zamonaviy I davrning etnik paradoksi. Xalqaro siyosatda axloq meyorlarining talqini. Separatizm. ekstremizm, terrorizm. Zamonaviy dunyoda terrorizmga qarshi kurash masalasi. Xalqaro munosaballarda diniy omil. Xalqaro siyosatda □ axloqning asosiy imperativlari. Xalqaro munosaballarda axloqiy me'yorlarning I ahamiyati. Xalqaro munosaballarda axloqiy o'lchov.
M13	**Jahon siyosatining global muammolari** Global muammolarning mazmuni va tipologiyasi. Global energetik ' □ muammo. Global ekologik muammo. Global dentografik muammo. Suv [! resurslarining global taqchiiligi muammosi. iqlim o'zgarishining inson i mavjudligiga ta'siri masalasi. Zamonaviy global muammolarini hal qilish usullari.
	4-Semistr Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M) (24)
M1	**Davlatlar tashqi siyosati va zamonaviy xalqaro munosabatlar** Tashqi siyosatning nazariy konsepsiyalari. Tashqi siyosiy qarorlarni qabul i J qilish naz.ariyasi va amaliyoti. Tashqi siyosat va diplomatiya. Diplomatiya va diplomatik xizmat. Davlatlarning tashqi siyosiy salohiyati va milliy-davlat manfaatlari. Siyosiy tizim va tashqi siyosatning o'zaro bog'liqligi. Xalqaro siyosiy tadqiqot usullari. Axborot-tahliliy faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish. Analitik ishlarningtarkibi vamazmuni.
M2	**Zamonaviy dunyoda AQShning global strategiyasi** AQShning izolyatsionizm va globalizm siyosati. AQShning XX asr boshidagi siyosati. Ikkinchi jahon urushidan keyingi vaziyat, "Sovuq urush"ning yuzaga kelishi. AQShning siyosiy, iqtisodiy, harbiy qudrati. Monro, Vilson, Ruzvelt, Trumen, Kennan, Nikson-Kissindjer, Karter, Reygan, Bush doktrinalari. 2001 yil 11 sentabr voqealarining xalqaro munosabatlar tizimiga ta'siri. AQSh Milliy xavfsizlik strategiyasi xususiyatlari. Amerikaning Markaziy Osiyoga nisbatan harbiy-siyosiy yondashuvi.
M3	**Rossiya Federatsiyasining tashqi siyosati** Rossiyaning yerlar yig'ish natijasida shakllanishi. Rossiya Sovet Ittifoqining poydevori sifatida. Rossiya davlat-mintaqa sifatida. Rossiya MDHning poydevori sifatida. Rossiyaning tashqi siyosiy tafakkurida g'arbiy, sharqiy, demokratik va neoimperiyachilik oqimlari. RFning dunyo yetakchi davlatlari bilan munosabatlari. RFning «G8»dagi faoliyati. Rossiyaning Markaziy Osiyodagi siyosati. Rossiyaning geosiyosati muammosi.
M4	**Xalqaro munosabatlar tizimida Yevropa Ittifoqi davlatlari** Ikkinchi jahon urushidan keyin Yevropa davlatlari. Marshall rejasi. Fransiya va Germaniya ko'mir va po'lat uyushmasi (European Coal and Steel Community). Parij, Rim. Maastrixt shartnomalari. YEXHT faoliyatining ustivor vo'nalishlari. Yevropa Ittifoqining tashkil topishi. Tashqi siyosat va xavfsizlik masalalari borasida yagona siyosatning amalga oshirilishi. Yevropa Ittifoqi institutlari.
M5	**XXR jahon siyosatida** XXR tashqi siyosatining mafkuraviy va huquqiy asoslari. Den Syaopin islohotlari. Xitoy iqtisodiy islohotlari. Xitoyning yaxlitligi muammosi - "bir davlat, ikki tizim" konsepsiyasi. Xitoyning dunyo yetakchi davlatlari bilan munosabatlari. Xitoyning tarixiy va zamonaviy geosiyosiy qarashlari. Xitoyning Markaziy Osiyodagi siyosati.
M6	**Jahon siyosatida Yaqin Sharq muammosi** Yaqin Sharq mintaqasining xususiyatlari. Yaqin Sharq mojarosining kelib chiqishi. Arab-yahudiy nizosi: Suriya, l.ivan, Yaman masalalari. Liviya va

	Iroq muammosi. Misrdagi "rangli inqilob" (2013 yil). Yaqin Sharq mojarosini bartaraf etishda G'arb davlatlarining siyosati. Yaqin Sharq mintaqaviy xavfsizligini ta'minlasb masalasi. Yaqin Sharq va Fors ko'rfazi AQShning hayotiy manfaatlar zonasi sifatida.
M7	**Jahon siyosatida Janubiy Osiyo mintaqasi** Janubiy Osiyoda geosiyosiy vaziyat. Hindiston va Pokiston davlatlarining tashkil topishi. Hindiston-Pokiston mojarosi va Kashmir muammosi. 1966 yildagi Toshkent deklaratsiyasi. Janubiy Osiyoda yadroviy qurolning tarqalishi. "Markaziy-Janubiy Osiyo makro-mintaqasi" tushunchasi. Hindiston va buyuk davlatlar. Hindiston va mintaqaviy qudratli davlatlar. Hindistonning buyuk davlat maqomiga da'vogarligi. Hindiston yadroviy davlat sifatida. Qo'shilmaslik harakati. Gandizm. Hindiston va Markaziy Osiyo.Pokiston va uning Markaziy hamda Janubiy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga nisbatan yondashuvlari. Pokistonning yadroviy dasturi. Pokiston- AQSh hamkorligi. Terrorizmga qarshi kurash masalasi.
M8	**Jahon siyosatida Afg'oniston masalasi** Afg'on davlatchiligining shakllanish muammosi. Dyurand chizig'i. Afg'onistonda 1973 va 1978 yillardagi davlat to'ntarishi. Sovet qo'shinlarining Afg'onistonga kiritilishi. Etnik, qabilaviy va fuqarolik urushi. Afg'on mujohidlari islomiy ittifoqi-7 va Afg'on mujohidlari islomiy ittifoqi-3. "Tolibon" Islom harakatining yuzaga kelishi va faoliyati. 2001 yildan Afg'onistondagi aksilterror operatsiyasi. Afg'onistonda 1SAF faoliyati. Afg'oniston va Markaziy Osiyo. Jahon siyosatida Afg'oniston masalasini hal qilish masalalari.
M9	**Yaponiya jahon siyosatida** Yaponiya tashqi siyosatining shakllanishi. Yapon dilemmasi: qaramlik va mustaqillik orasida. Iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlari. Tashqi siyosiy yo'nalishlarning shakllanishida siyosiy partiyalarning roli. Yaponiyaning jahon siyosatiga kirishishi. Yaponiya-AQSh siyosatining ustuvor yo'nalishlari. Xashimoto hukumatining "Markaziy Osiyo+Yaponiya" strategiyasi: mintaqaviy xavfsizlik, energetik xavfsizlik, transport logistikasi.
M10	**Turkiya jahon siyosatida** Turkiya davlatining yuzaga kelishi. Turkiya islohotlarining asosiy yo'nalishlari va tashqi siyosat. Turkiya tashqi siyosatida panturkizm alomatlari. Davlat siyosiy tizimining shakllanishi. Turkiyaning jahon siyosatidagi o'rni. Turkiya-Germaniya munosabatlari. Turkiya-AQSh hamkorligi. Turkiyaning NATOga a'zo bo'lishi. Turkiyaning Yevropa davlatlari bilan aloqalari. i Turkiyaning Yaqin Sharq muammolariga nisbatan yondashuvlari. Turkiyaning YEIga a'zo bo'lish istiqbollari. Turkiya va Markaziy Osiyo.
M11	**Jahon siyosatida Islom davlatlari omili** Jahon siyosatida din omili. Davlatlar tashqi siyosatiga Islom dinining ta'siri. Islom Konferensiyasi Tashkilotining faoliyati. Xalqaro munosabatlarda sunniy-shia raqobati omili. Saudiya Arabistoni, Misr, BAA. lordaniya.

	Malayziya siyosati. Eron Islom Respublikasidagi siyosiy tuzum. Eron tashqi siyosatida Islom inqilobi eksporti konsepsiyasi. Xalqaro munosabatlarga Eronning ta'siri. Eron yadroviy dasturi va AQSh. Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan muzokaralari.
M12	**Jahon siyosati va Markaziy Osiyo** Jahon siyosatida din omili. Davlatlar tashqi siyosatiga Islom dinining ta'siri. Islom Konferensiyasi Tashkilotining faoliyati. Xalqaro munosabatlarda sunniy-shia raqobati omili, Saudiya Arabistoni, Misr, BAA, lordaniya, Malayziya siyosati. "Arab bahori" va uning xalqaro munosabatlarga ta'siri. "Avraam bitimi" va uning tarixiy-siyosiy ahamiyati. Ukraina urushi va energetika inqirozi: arab davlatlarining o'mi.
	III. Mashg'ulotlar shakli: Seminar mashg'uloti **3-semestr.jahon siyosati III. (26)**
S1	Jahon siyosati fanining nazariy manbalari va konseptual asoslari.
S2	Siyosiy ta'limotlar tarixida xalqaro munosabatlarga qarashlar.
S3	Vestfal modeli asosida zamonaviy xalqaro munosabatlar tamoyillarining shakllanishi.
S4	XX asrning 40-60-yillari siyosiy fanlarda xalqaro munosabatlarni tadqiq etishning nazariy masalalari.
S5	1970 - 1990-yillarda xalqaro munosabatlar nazariyasidagi o'zgarishlar.
S6	Xalqaro munosabatlarda metod masalasi.
S7	Xalqaro munosabatlar tizimi va strukturasi.
S8	Xalqaro munosabatlar tizimining jahon taraqqiyotidagi o'rni.
S9	XX asr oxiri XXI asr boshlarida xalqaro munosabatlar va jahon siyosati masalalari borasidagi nazariy qarashlar.
S10	Xalqaro mojarolarni tadqiq qilish va bartaraf etishning nazariy masalalari
S11	Globallashuv jahon siyosiy jarayoni rivojlanishining asosiy tendensiyasi sifatida.
S12	Zamonaviy jahon siyosatida etnopolitik omil.
S13	Jahon siyosatining global muammolari.
	2.IV. Mashg'ulotlar shakli: Seminar mashg'uloti **4-semestr.jahon siyosati IV. (26)**
S1	Davlatlar tashqi siyosati va zamonaviy xalqaro munosabatlar.
S2	Zamonaviy dunyoda AQShning global strategiyasi.
S3	Rossiya Federatsiyasining tashqi siyosati.
S4	Xalqaro munosabatlar tizimida Yevropa Ittifoqi davlatlari.
S5	XXR jahon siyosatida.
S6	Jahon siyosatidaYaqin Sharq muammosi.
S7	Jahon siyosatida Janubiy Osiyo mintaqasi.
S8	Jahon siyosatida Afg'oniston masalasi.
S9	Yaponiya jahon siyosatida.

S10	Turkiya jahon siyosatida.
S11	Jahon siyosatida Islom davlatlari omili.
	Jahon siyosati vaMarkaziyOsiyo.
S12	O‘zbekiston Respublikasi va Yevropa ittifoqi
S13	MDH va O'zbekiston Respublikasi munosabatlari.

Mustaqil ta'limni bajarish bo'yicha talablar:
"Jahon siyosati" fani bo'yicha mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular vamustaqil ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mavzu nomi
1.	Jahon siyosati fanining nazariy manbalari va konseptual asoslari.
2.	Ichki va tashqi siyosatning o'zaro bog'liqligi.
3.	Siyosiy ta'limotlar tarixida xalqaro munosabatlarga qarashlar.
4.	Mintaqashunoslik ilmiy tadqiqot va o'quv fani sifatida.
5.	Vestfal modeli asosida zamonaviy xalqaro munosabatlar tamoyillarining shakllanishi.
6.	Davlatlaming tan olinishi, xalqlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash tamoyili, hududiy yaxlitlik.
7.	XX asming 40—60-yillari siyosiy fanlarda xalqaro munosabatlarni tadqiq etishning nazariy masalalari.
8.	Xalqaro munosabatlar ishtirokchilarining uslublari va strategiyalari.
9.	1970 - 1990-yillarda xalqaro munosabatlar nazariyasidagi o‘zgarishlar.
10.	Xalqaro integratsiyaning nazariy masalalari.
11.	Xalqaro munosabatlarda metod masalasi.
12.	Qaror qabul qilishjarayonini tahlil qilish.
13.	Xalqaro munosabatlar tizimi va strukturasi
14.	Xalqaro munosabatlarni tahlil qilishda tizimli yondashuvning xususiyatlari va asosiy yo‘nalishlari.
15.	Xalqaro munosabatlar tiziminingjahon taraqqiyotidagi o‘rni.
16.	Suverenitet va xavfsizlik masalalaridagi o'zgarishlar.
17.	XX asr oxiri - XXI asr boshlarida xalqaro munosabatlar va jahon siyosati masalalari borasidagi nazariy qarashlar.
18.	Jahon siyosalining yangi aktorlari va yangicha qarashlar.
19.	Xalqaro mojarolarni tadqiq qilish va bartaraf etishning nazariy masalalari.
20.	Zamonaviy dunyoda xalqaro huquq.
21.	Globallashuv jahon siyosiy jarayoni rivojlanishining asosiy tendensiyasi sifatida.
22.	Globallashuv va zamonaviy rivojlanish muammolari.
23.	Zamonaviy jahon siyosatida etnopolitik omil
24.	Xalqaro munosabatlarda axloqiy me'yorlarning ahamiyati.
25.	Jahon siyosalining global muammolari.
26.	Zamonaviy global muammolarini hal qilish usullari.
27.	Davlatlar tashqi siyosati va zamonaviy xalqaro munosabatlar.
28.	Davlatlaming tashqi siyosiy salohiyati va milliy-davlat manfaatlari.
29.	Parlamentarizm prinsiplari asosida faoliyat ko'rsatuvchi davlat institutlari.
30.	Yangi davlat boshqaruvi" modelining o'ziga xos xususiyati va amaliyoti.
31.	Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish va davlat boshqaruvini avtomatlashtirish jarayonlari.
32.	Ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.
33.	Davlat boshqaruvi tizimiga strategik rejalashtirishning zamonaviy shakllari, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish.
34.	Zamonaviy dunyoda AQShning global strategiyasi.
35.	Fransiyaning tashqi siyosati
36.	Germaniyaning tashqi siyosati.
37.	AQSHning tashqi siyosati.
38.	Jahon siyosatida Janubiy Osiyo mintaqasi.
39.	Janubiy Koreyaning tashqi siyosati.
40.	O‘zbekiston Respublikasi va Yaponiya orasida strategik sheriklik i munosabatlar!.
41.	Jahon siyosatida Afg'oniston masalasi.
42.	Yaponiya jahon siyosatida.
43.	Turkiya jahon siyosatida
44.	Jahon siyosatida Islom davlatlari omili.
45.	Jahon siyosati va Markaziy Osiyo.
46.	Amerikaning Markaziy Osiyoga nisbatan harbiy-siyosiy yondashuvi.
47.	O'zbekiston va Turkiyaning ikki tomonlama munosabatlari.
48.	0‘zbekiston Respublikasi va Yevropa ittifoqi.

49.	MDH va O‘zbekiston Respublikasi munosabatlari
50.	Sbanxay hamkorlik tashkiloti integratsion jarayonlar.
51.	O‘zbekiston: xavfsizlik va tashqi siyosat

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

“Jahon siyosati”fani bo‘yicha mustaqil ta’lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko‘nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. siyosiy madaniyat, mafkura va antropologiyaning mazmuni, mohiyati, tasnifini, uning rivojlanishi, nazariyalari bir-biri bilan bog'liq jihatlar to’g’risida tasavvurga ega bo'lishi; siyosiy madaniyatning xulq-atvor jihati: shakllari va stereotiplar, siyosiy mafkura hokimiyat munosabatlarini aks ettiruvchi omil ekanligini, liberalizm va neoliberalizm, konservatizm va neokonservatizm, sotsial demokratiyaga doir xususiyatlarni bilishi va ulardan foydalana olishi; rivojlangan mamlakatlar siyosiy madaniyati, mafkurasini siyosiy tahlil qila oladi, hokimiyat va davlatning kelib chiqishi, antropologiyasi haqidagi bilimlar asosida mushohada yurita olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.Ushbu mavzu haqida keyingi tadqiqotlar olib borgan ekspeditsiya faoliyati ham keng ma’lumotlar berib ular haqida ham o‘quvchilar bilim ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to‘g‘risida talabalar qay tarzda o‘zlashtirish, bilim ko‘nikmasiga ega bo‘lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3.	**V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: - **“Jahon siyosati”** fanidan talabalar, ushbu davrda tarixiy tadqiqotlar ko‘lami, davrning o‘z dolzarb muammosini tadqiqotlarning metodologik asoslari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo‘lishi;*** - Talaba **“Jahon siyosati”** fanining alohida fan sifatida mavqyeiga ega bo‘lishi, o‘rganilayotgan davr va bugungi kun tarix fanining dolzarb muammolarini to‘g‘ri talqin qilish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishikerak***. - Talaba o‘zlashtirayotgan fan bo‘yicha egallagan bilimlarini tahlil qilish to‘plangan tarixiy tajribani ilmiy va pedagogik amaliyotda samarali qo‘llash ***malakalariga ega bo‘lishikerak***.
4.	**VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:** • ma’ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • *munozara,* • *o‘z-o‘zini nazorat.* • “Aqliy hujum”, • “Muammo”; • Krossvord • Annogrammalar • Ko‘chma dars mashg‘ulotlari
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta’limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

Asosiy adabiyotlar

A1.	Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-ЖИЛД / Ш.М. Мирзиёев. – Т.: “Ўзбекистон”, 2019. – 592 б. A.Samadov. Geosiyosat asoslari. O‘quv qo’llanma. SamDU nashri. -T., 2021. 343 b. Мавлонов Ж. Основы геополитики: Методическое пособие, -Т., НУ Уз. 2022. -125 Safoev S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. T.: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, 2005. - 160 s. Muhammadsidiqov M.M. Xorijiy Sharq va G‘arb mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. Darslik. – T.: Qaqnus media, 2019. – 216 b
	Tavsiya qilinadigan qo‘shimcha adabiyotlar
Q1.	Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O‘zbekistan. 2017. -486 b.
Q2.	Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. -T.: O‘zbekistan, 2017. -592 b.
Q3.	Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. -T.: O‘zbekiston, 2018. -508 b.
Q4.	Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi.-T.: “O‘zbekiston”, 2021, - 446 b.
Q5.	Бажанов Е.П. Современная мировая политика. Учебник. -М.: “Дашков и К”. 2019. 450 стр.
Q6.	Bjezinskiy 3. Velikaya shaxmatnaya doska. M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 1998.
Q7.	Buzan Barry and Ole Waever. Regions and Powers. The Structure of International Security. Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
	Axborot manbalari:
A1	www.prezident.uz – O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
A2	www.gov.uz - O‘zbekistan Respublikasi hukumat portali.
A3	www.lex.uz – O‘zbekistan Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
A4	www.natlib.uz - Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekistan Milliy kutubxonasi
8.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O‘quv uslubiy Kengashining 2024 yil “___” _____ dagi 1-son bayonnomasi bilan ma’qullangan.
9.	**Fan/modul uchun mas’ul:** Sattorov M. – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, “Falsafa va milliy g‘oya” kafedrasi dotsenti
10.	**Taqrizchilar:** - Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, “Falsafa va milliy g‘oya” kafedrasi professori (ichki) A.Samadov Respublika Ma'naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy tadqiqotlar instituti bo‘limi boshlig‘i, siyosiy fanlar doktori (DSc) (tashqi) Musayev M

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais – M.Normamatova _____

Falsafa va milliy g'oya kafedra mudiri **prof. A.Samadov**

Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti dekani **prof. A.Q. Aymatov**

SamDU o'quv ishlari bo'yicha prorektor **prof. A.Soleev**

"Falsafa va milliy g'oya" kafedrasida o'tiladigan "Jahon siyosati" fanidan tuzilgan fan dasturiga

TAQRIZ

"Jahon siyosati" fan dasturida talabalarda qadimgi dunyodan hozirgi davrgacha evolyusiyaviy tarzda rivojlanayotgan siyosat, unga doir asosiy konsepsiyalar bilan tanishtirish ochib berilgan.

Fan dasturida fanning vazifasi – jahon siyosiy fikrining paydo bo'lishi va rivojlanishi bosqichlari ya'ni: qadimgi dunyoning turli mintaqalarida siyosiy fikrning kelib chiqishi va rivojlanishi; o'rta asrlar va uyg'onish davridagi siyosiy tafakkur rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini, buyuk mutafakkirlarning qarashlarini yoritish; yangi zamondagi siyosiy ta'limotlarning ijtimoiy hodisalarni bilishdagi o'rni, roli va ahamiyatini tushuntirish; eng yangi zamondagi siyosiy qarashlar, maktablar qaror topishi va rivojlanishining asosiy yo'nalishlari, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berilgan.

Talabalarning istiqbolda davlat va siyosat sohalarida tadqiqotlarni rivojlantirish va umumjahon siyosiy tamoyillarini baholay olish qobiliyatini egallashi uchun jahon siyosiy ta'limotini rivojlanishiga hissa qo'shgan mutafakkirlarning vakillari tomonidan ishlab chiqilgan siyosatga oid nazariyalarni mustaqil ravishda tahlil etish ko'nikmalarini shakllantirish; talabalarni fanni rivojlantirishga oid tahlil qilish va tizimli yondashuvga o'rgatish.tafakkur tarzining ko'rinishlari, ularning dolzarb muammolari va ilmiy tafakkur tarzining mohiyati xususida chuqur bilim olish, hamda ularda o'z-o'zini anglash va to'g'ri fikrlash mahorati, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Yaratilgan fan dasturi oliy ta'lim tizimida bakalavr bosqichi talabalari uchun o'tilagan "Jahon siyosati" fanining mazmuni va o'tilishi tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi.

"Jahon siyosati" fanidan tayyorlangan fan dasturi mazmunan va tuzilishi jihatidan OTM fan dasturlariga qo'yilgan talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni barcha ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun ta'lim jarayonida foydalanishga tavsiya etaman.

"Falsafa va milliy g'oya" kafedrasi professori **A.R.Samadov**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, "Falsafa va milliy g'oya" kafedrasining "Jahon siyosati" faniga tayyorlangan fan dasturiga

TAQRIZ

"Jahon siyosati" fan dasturida talabalarda qadimgi dunyodan hozirgi davrgacha evolyusiyaviy tarzda rivojlanayotgan siyosat, unga doir asosiy konsepsiyalar bilan tanishtirish ochib berilgan.

Fan dasturida fanning vazifasi – jahon siyosiy fikrining paydo bo'lishi va rivojlanishi bosqichlari ya'ni: qadimgi dunyoning turli mintaqalarida siyosiy fikrning kelib chiqishi va rivojlanishi; o'rta asrlar va uyg'onish davridagi siyosiy tafakkur rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini, buyuk mutafakkirlarning qarashlarini yoritish; yangi zamondagi siyosiy ta'limotlarning ijtimoiy hodisalarni bilishdagi o'rni, roli va ahamiyatini tushuntirish; eng yangi zamondagi siyosiy qarashlar, maktablar qaror topishi va rivojlanishining asosiy yo'nalishlari, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berilgan.

Talabalarning istiqbolda davlat va siyosat sohalarida tadqiqotlarni rivojlantirish va umumjahon siyosiy tamoyillarini baholay olish qobiliyatini egallashi uchun jahon siyosiy ta'limotini rivojlanishiga hissa qo'shgan mutafakkirlarning vakillari tomonidan ishlab chiqilgan siyosatga oid nazariyalarni mustaqil ravishda tahlil etish ko'nikmalarini shakllantirish; talabalarni fanni rivojlantirishga oid tahlil qilish va tizimli yondashuvga o'rgatish.tafakkur tarzining ko'rinishlari, ularning dolzarb muammolari va ilmiy tafakkur tarzining mohiyati xususida chuqur bilim olish, hamda ularda o'z-o'zini anglash va to'g'ri fikrlash mahorati, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

"Jahon siyosati" fanidan tayyorlangan fan dasturi mazmunan va tuzilishi jihatidan OTM fan dasturlariga qo'yilgan talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni barcha ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun ta'lim jarayonida foydalanishga tavsiya etaman.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar boshlig'i, siyosiy fanlari
M.Musayev